



OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING JORIY HOLATI VA UNING IQTISODIY TAHLILI

Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

r.raxmanov@tsue.uz

Dolzarblik. Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz Orolbo'yi mintaqasi - Qoraqalpog'iston Respublikasi va unga tutash hududlar aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Mintaqada doimiy aholi soni 2026-yil 1-yanvar holatiga 2 053,2 ming kishini tashkil etib, barqaror o'sish tendensiyasiga ega, bu esa yoshlar bandligi va tadbirkorligini rivojlantirishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Vazirlar Mahkamasining 41-son qarori bilan mintaqani ekologik innovatsiyalar hududiga aylantirish, jumladan Nukusda Yoshlar texnoparki tashkil etilishi belgilangan. Ta'lim xizmatlari hajmi mintaqada bozor xizmatlarining qariyb 6,5 foizini tashkil etib, muhim iqtisodiy tarmoqqa aylangan. Yoshlar tadbirkorligi bilan ta'lim xizmatlari sifati o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy tahlil qilish shu sababli dolzarb vazifaga aylanadi.

Muammo. Orolbo'yi mintaqasida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ta'lim xizmatlari sifati bilan tadbirkorlik faolligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yetarlicha ilmiy asoslanmagan. Tumanlar kesimida ta'lim infratuzilmasining notekis rivojlanganligi, kasb-hunar va oliy ta'limda amaliy tadbirkorlik modullarining cheklanganligi, malakali kadrlar yetishmasligi hamda ekologik omillar tufayli an'anaviy qishloq xo'jaligi ish o'rinlarining qisqarib borishi yoshlar tadbirkorligining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Maqsad. Ushbu tadqiqotning maqsadi Orolbo'yi mintaqasi misolida yoshlar tadbirkorligi va ta'lim xizmatlari sifatining joriy holatini o'rganish, ular o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlikni tahlil qilish hamda mintaqaning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari. Birinchidan, 2025-2027-yillarga mo'ljallangan "Yoshlar biznesi" dasturi doirasida mamlakat bo'yicha 350 ming yoshni qamrab olish va kamida 100 ming qo'shimcha ish o'rni yaratish rejalashtirilgan bo'lib, bu dastur Orolbo'yi hududlari uchun ekologik omillar sababli qisqarayotgan qishloq xo'jaligi ish o'rinlarini qoplashda alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Ikkinchidan, "Biznesga birinchi qadam" va "Yoshlar uchun ish o'rinlari" loyihalari asosida mintaqada yoshlarga mos ravishda 100 mln so'mgacha mikroqarz va 5 mlrd so'mgacha investitsiya ajratilishi tadbirkorlik infratuzilmasini kengaytirgani ko'rsatildi. Uchinchidan, ta'lim xizmatlari hajmining bozor xizmatlari umumiy hajmidagi 6,5 foizlik ulushiga qaramay, tumanlar kesimida ta'lim infratuzilmasining notekis taqsimlanishi va amaliy tadbirkorlik modullarining yetishmasligi aniqlandi. To'rtinchidan, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantiruvchi amaliy ta'lim dasturlarini o'zlashtirgan yoshlar orasida biznesni boshlash va uni barqaror yuritish ko'rsatkichlari sezilarli yuqori ekanligi,



ya'ni ta'lim sifati bilan tadbirkorlik faolligi o'rtasida bevosita ijobiy iqtisodiy bog'liqlik mavjudligi isbotlandi. Beshinchidan, Nukusdagi Yoshlar texnoparki va startap ekotizimlari orqali yoshlarning ekologik va raqamli yo'nalishdagi loyihalari qo'llab-quvvatlanayotgani, biroq ushbu qo'llab-quvvatlash ta'lim muassasalari bilan yetarlicha uzviy bog'lanmaganligi aniqlandi.

Uslubiy tavsiyalar. Orolbo'yi mintaqasida yoshlar tadbirkorligi va ta'lim xizmatlari sifatini muvofiqlashtirib rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi. Birinchi yo'nalish - kasb-hunar va oliy ta'lim dasturlariga tadbirkorlik asoslari va amaliy startap modullarini majburiy tartibda kiritish. Ikkinchi yo'nalish - Yoshlar texnoparki bilan ta'lim muassasalari o'rtasida uzluksiz mentorlik va amaliyot hamkorligini yo'lga qo'yish. Uchinchi yo'nalish - tumanlar kesimidagi ta'lim infratuzilmasi tafovutlarini raqamli ta'lim platformalari orqali qisqartirish. To'rtinchi yo'nalish - ekologik va suv resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan "yashil" startap loyihalarini alohida moliyalashtirish mexanizmlari bilan qo'llab-quvvatlash. Beshinchi yo'nalish - mintaqaviy tadbirkorlik va ta'lim sifati ko'rsatkichlarini muntazam kuzatib boruvchi yagona monitoring tizimini joriy etish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Orolbo'yi mintaqasida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish ta'lim xizmatlari sifatini oshirish bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim. Ishlab chiqilgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish yoshlar bandligini oshirish, ekologik inqiroz sharoitida iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash va mintaqqa ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. Ma'ruzalar va nutqlar to'plami. -- T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Orol bo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 25-yanvardagi 41-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-son qarori.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Nukus, 2025-2026.





5. Karimov B.A., Nazarova D.T. Yoshlar tadbirkorligi: nazariya va amaliyot. -- T.: Iqtisod-Moliya, 2022.

6. Rustamov O.Q. Mintaqaviy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning iqtisodiy asoslari // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. -- 2024. -- №2.

